
O'zbekistonda so'nggi ikki oyda 20 nafar voyaga yetmagan bola suvda cho'kib halok bo'lgan

O'zbekistonda may—iyun oylarida voyaga yetmagan bolaning 20 nafari suvda cho'kib halok bo'lgan. Bu haqda Favqulodda vaziyatlar vazirligi axborot xizmati xodimi Samandar Hikmatullayev 18-iyun kuni AOKA huzuridagi shtabda bo'lib o'tgan brifingda [ma'lum qildi](#).

Unda aytilishicha, 2020-yilda 64 nafar fuqaro suvda cho'kib halok bo'lgan bo'lib, ularning 20 nafardan ortig'i voyaga yetmagan bolalardir.

Suvda cho'kib halok bo'lganning

- 5 nafari — 5 yoshgacha bo'lgan bolalar
- 8 nafari — 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar
- 7 nafari — 18 yoshgacha bo'lgan yoshlardir.

2020-06-19 10:10:53